

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARGA KOMPETINSIYAVIY YONDASHUV

Choriyeva Shohnoza G'aniyevna

*Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tuman Barkamol avlod bolalar
maktabining Tasviriy san'at o'qituvchi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligi haqida fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Sinfdan tashqari ishlar, kompetensiya, yondashuv, kommunikativ kompetensiya*

Yurtimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, mustaqil fikrlay oladigan shaxs qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Bunga istiqlolimizning ilk yillaridanoq maktab ta'limini rivojlantirishga e'tibor berilib farzandlarimizning bilimli, salohiyatli vatanimiz ravnaqi uchun kerakli shaxs bo'lib kamol topishiga yo'naltirilgan qaror va farmonlarda o'z ifodasini topib kelmoqda. Mustaqillik yillarida yurtboshimiz rahnamolikilarida ta'lim tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Buning uchun davlat umummilliy dasturlari asosida barcha sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda ilm – fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarida jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etib, har bir tizim xodimi, ayniqsa o'qituvchilar zimmasiga yanada og'ir mas'uliyatli vazifalarni yukladi. Bu vazifalarni hal etishda o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Har bir sinf raxbari o'quvchilarini sinfdan tashqari mashg'ulotlariga jalb qilishi muhim ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni samaradorligini oshirishda kompetensiyaviy yondashuv yaxshi natija beradi.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv deganda o'quvchilarni ta'lim muassasida egallagan bilimlari orqali kundalik hayotda duch kelinadigan tanish yoki notanish vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashdir. O'qituvchining o'z fanidan o'quvchilarda shakillantiradigan ko'nikma va malakalarining nimalardan iboratligi, unga qo'yilgan davlat talablari, bunga erishishning maqbul yo'llari va uslublarini hamda uning asosiy, tartibga soluvchi mezonlarini bilishi o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishning eng muhim omilidir. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda boshlang'ich ta'limning kompetensiyaviy yondashuv asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirish yordam beradi. Xususan o'quvchilarning olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini hosil qilish muxim o'rin tutadi. Sinfdan tashqari

mashg'ulotlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish hamda bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Umumiy o'rta talim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari tizimi joriy etilgandan so'ng, o'quvchilarning nafaqat o'quv jarayonida, balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda qo'llay olish xususiyatlari nomoyon bo'ldi. Bundan ko'rinadiki o'qituvchilar darsdan tashqari mashg'ulotlarni yangi takomillashgan standart asosida tashkil etish uchun, birinchi navbatda yangi darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishishlari lozim. Chunki darslik va o'quv dasturlari o'zgarishi bilan o'quvchilarda shakllantirilgan tayanch va kompetensiyaviy yondashuvni anglagan holda belgilab olinadi. Kompetensiyaviy yondashuv har bir dars uchun alohida tuzilsa darsdan tashqari mashg'ulotlarda haftaning har bir kuni uchun tayyorlash mumkin.

Dushanba-komunikativ kompetensiya-mustaqil fikrlashga o'rgatish, muomila madaniyatini shakllantirish. "yosh kitobxon" ko'rik tanlovini tashkil etish.

Seshanba-kimning xati chiroyli-o'quvchilarni chiroyli yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish, diktant kechalari uyushtirib o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish.

Chorshanba-axborot bilan ishlash-hafta davomidagi yangilaklar bilan tanishtirish, kun suhandoni joriy etish, kompyuterda testlar yechish, internetdagi ma'lumotlarni izlab topish.

Payshanba-ijodiy ishlash, o'quvchilar estetik jarayonda ishtirok etadilar, rasm chizish turli xil buyumlar yasaydilar.

Juma-shaxs sifatida o'z o'zini rivojlantirish, hafta mobaynida olgan bilimlarni kundalik hayotida qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish kabi belgilab olinadi. Har bir mashg'ulot 35-40 daqiqadan tashkil etiladi. Bu orqali o'qituvchi bolaning qaysi fanga qiziqishini aniqlab oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni yetuk va barkamol, mehnatsevar vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga kompetensiyaviy yondashilsa o'quvchilarning bosh vaqtlarini yanada mazmunli tashkil etishga erishiladi. Dars samaradorligi oshib, ta'lim tarbiya jarayonidagi ko'plab muammolar hal etiladi, bosh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham ko'rsatkichlari oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev.Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.2020
2. Ta'lim to'g'risidagi qonun
3. R.A.Mavlonova,N.X.Rahmonqulova,B.A.Normurodova,
4. K.O.Matanazarova,,Tarbiyaviy ishlar metodikasi“ darslik Toshkent 2014.
5. A. Jo`rayev,,Tarbiyaviy darslarni o`tish“ T-.,O`qituvchi“ 1994.